2-bosqich 1-semestr.
1-mavzu: Kirish. Adabiyot ma’naviyatni yuksaltirish vositasi

Adabiyot

Abdukadirova M.M.

Reja:

1.Kirish. Adabiyot – so‘z san’ati ekanligi haqida.

2.O‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot bosqichlari.

3. Adabiyot-jamiyat hayotining ko‘zgusi

4. Adabiyotni boshqa fanlar bilan aloqasi.

5.Badiiy obraz va obrazlilik.

6.Hozirgi kunda yaratilgan badiiy adabiyotlar.

Insonni,uning ma’naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilar inson ruhining muhandislaridir. Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi.

(I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”)

Adabiyot so‘z san’atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg‘ashga, ularni so‘z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng oliy daraja, yuksak pog‘onalarga chiqa oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o‘y-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ifodalaydi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o‘xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. 0‘zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg‘ota oladi, ularning ma’naviy boyishlariga tegishli hissa qo‘sha oladi. Muhimi, ular faqat ma’rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga, ma’naviy kamolotga xizmat qiladi.

XIV asrda Sayfi Saroyi shoirlarni “so‘z bulbuli” deydi. U so‘z qudratini shoirlar iste’dodiga bog‘lab:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘

Kimi bulbuldurur so‘zda, kimi zog‘, -

deya shoirlarni ikkiga ajratadi.

Alisher Navoiy so‘zga nihoyatda katta baho berib shunday yozgan:

So‘zkim insonni ayladi judo hayvondin,

Bilkim guhari sharifroq yo‘q ondin, - deb ta’kidlaydi.

Adabiyotshunoslik



Obrazlilik	•badiiy adabiyotning hamma qismlari uchun xosdir. Ma'lumki, asardagi har bir shaxs, hodisa, narsa bizning ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.biz ularning sop'z bilan chizilgan suratini ko'ra olamiz. Faqat bunda bu surat harakatsiz emas, balki muttasil harakatda, bir-biri bilan qarama-qarshilik va ziddiyatlarda ko'rinadi.
Adabiyot nazariyasi	• barcha zamonlarda bunyod etilgan hamma asarlar uchun umumiy bo'lgan asoslarni, badiiy asarning tarkibiy qismlarini, badiiyat qonun-qoidalarini o'rganadi.
Adabiyot tarixi	•esa muayyan mamlakatlar yoki xalqlar milliy adabiyotining rivojlanish bosqichlarini, biror xalq yoki jahon adabiyoti vakillari bo'lgan buyuk san'atkorlarning hayoti va ijodini o'rganadi.
Adabiy tanqid	hozirgi adabiy jarayonda bunyod etilgan asarlarni baholash, ularning yutuq va kamchiliklarini, taraqqiyot yo'nalishlarini izohlash va ko'rsatish bilan shug'ullanandi.

ADABIYOTNI DAVRLASHTIRISH

Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarning hukmdorlik davrlari bilan, yirik tarixiy hodisalar bilan bog‘laydilar. Bizningcha, adabiyotimiz tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

Adabiyotda badiiy tasvir -obrazlilik yordamida ifodalanadi. Obrazlilik badiiy adabiyotning hamma qismlari uchun xosdir. Ma’lumki, asardagi har bir shaxs, hodisa, narsa bizning ko‘z o'ngimizda namoyon bo‘ladi. Biz ularning so‘z bilan chizilgan suratini ko‘ra olamiz. Faqat bunda bu surat harakatsiz holatda emas, balki muttasil harakatda, bir-biri bilan qarama-qarshilik va ziddiyatlarda ko‘rinadi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida XI asrdagi turkiy xalqlar hayotining ayrim manzaralari qalamga olingan. Unda muallif goh qahramonlar tilidan, goh o‘z tilidan XI asr kishilarining o‘y-flkrlari, orzu-intilishlarini tasvirlaydi

Kitobxonlik madaniyatining yuksalishida o‘z ustida ishlashning, mustaqil va ijodiy faoliyatning ahamiyati beqiyos. Shuningdek, ulug‘ ajdodlarning hayoti va ijodidan saboq olish, ular yozib qoldirgan hayotiy hikmatlardan bahramand bo‘lish ham lozim. Mahmud Koshg‘ariy «Qut belgusi – bilig» degan maqolning turkiy xalqlar og‘zaki ijodida juda qadim davrlardan boshlab faol iste’molda bo‘lganini yozadi. Bu har qanday fazilatning boshlanishi bilimdir degan ma’noni anglatadi. Bilimning manbayi esa, tabiiyki, kitob bo‘ladi.

Adabiyot – estetik tarbiya vositasi.

Badiiy asarlarda urush va tinchlik, tog‘ va daryolar, shahar va qishloq, inson va hayvonot dunyosi, o‘simliklar olami, hattoki sukunat ham qalamga olinaveradi. Ammo bularning barchasi inson qalbi, uning ruhiyati, ma’naviyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Demak adabiyotning markazida doim inson turadi. Masalan, gul, bahor, qush, tosh, ot tasviriga bag‘ishlangan asarlar bo‘lishi mumkin. Biroq bu asarlarda ham insonning borliqqa bo‘lgan munosabati aks etadi. Aslida bular insonning go‘zalikka bo‘lgan intilishi bilan bog‘liq. Shu ma’noda adabiyot estetik tarbiya vositasi ham deyiladi.

Hadisi sharifda aytilganidek, «... agar siz yaxshi narsalarni ko‘rib xursand bo‘lsangiz va aksincha, yomon narsani ko‘rib ranjisangiz, haqiqiy mo‘min ekansiz». Bu yaxshi insonga xos xislat belgisidir.

Bugungi kun nasrida qalam tebratayotgan ijodkorlarimizdan Tohir Malik, Tog‘ay Murod, Nazar Eshonqul, Luqmon Bo‘rixon, Xurshid Do‘stmuhammad, Zulfiya Qurbonboy qizi, Ulug‘bek Hamdam kabi bir qator yozuvchilarimizning asarlari milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisa bo‘ldi.

Bugungi kunda adabiyotimizga o‘zgacha ruh olib kirgan yozuvchi, adibalarimizdan biri Salomat Vafodir. Salomat Vafo badiiy adabiyotda hikoyalari, romanlari bilan tanilgan ijodkor. Uning “Ovoraning ko`rgan- kechirganlari” romanida oddiy bir ayolning turfa xil ko‘guliklarni boshdan kechirshi oqibatidagi og‘ir qismati tasvirlanadi. Yozuvchi har bir asarida ayol ruhiyati, insoniy tuyg‘ular, qadr-qimmat tuyg‘usiga alohida e’tibor qaratadi. Salomat Vafo yaratgan obrazlar, ifoda tarzining favquloddaligiga ko‘ra adabiyotimizda yangilik bo‘ldi.

2- o‘quv topshirig‘i

O‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot bosqichlarini quyidagi toifalash jadvaliga yozib chiqing.

Davrning nomlanishi	Davom etgan asrlar	Shu davrga oid adib va asarlardan namunalar
1		
2		
3		
4		
5		

Topshiriq javoblari

Davrning nomlanishi	Davom etgan asrlar	Shu davrga oid adib va asarlardan namunalar
1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar	VI asrgacha	"Avesto", "To'maris", "Shiroq", "Alpomish"
2. Ilk o'rta asrlar adabiyoti	VI – IX asrlar	O'rxun-Enasoy yodgorliklari
3. O'rta asrlar adabiyoti	IX – XV asrlar	Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariy "Devon-u lug'otit-turk"
4. XVI-XIX asrlar adabiyoti	XVI – XIX asrlar	Fazliy Namanganiy "Majmuat ush-shuaro"
5. XX asr adabiyoti	XX asr boshidan hozirgacha	Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar", Cho'lpon "Kecha va kunduz" va b.

Nazorat savollari:

1. Qadimiy adabiy yodgorliklardan qaysilarini bilasiz?
2. Qomusiy olimlar va ularning asarlari haqida nimalar bilasiz?
3. Hadislar va turkiy adabiyotning qanday namunalarini bilasiz?
4. Adabiyotda badiiy tasvir qanday ifodalanadi?
5.Hozirgi davr adabiyoti haqida fikringiz?

- 6. Asar tanlash va uni mutolaa qilishda, asosan, nimalarga e’tibor berdingiz?
- 7. Ko‘p kitob o‘qigan inson ma’naviyatiga qanday baho berasiz? Fikringizni hayotiy misollar asosida izohlang.
- 8. O‘zbek adiblarining ma’naviyatga, adabiyotga doir qaysi hikmatli so‘zlarini bilasiz?
- 9. Badiiy adabiyotning inson qalbi va jamiyat hayotiga ta’siri to‘g‘risida misollar asosida fikr bildiring.
- 10. Ta’til davomida o‘zingiz o‘qigan badiiy asarlarga annotatsiya (qisqacha izoh) yozing.

Uyga vazifa

Quyida muallifi bilan berilgan asarlarni o‘zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlariga ko‘ra davrlashtiring:

“Alpomish” dostoni, Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq”, Xorazmiy “Muhabbatnoma”, “Shiroq” afsonasi, Cho‘lpon “Kecha va kunduz”, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush”, “To‘maris” afsonasi, Mahmud Koshg‘ariy “Devon-u lug‘otit-turk”, Alp Er To‘nga marsiyasi, Nosuriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”, Haydar Xorazmiy “Gul va Navro‘z”, “Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”, Abdulla Oripov “Sohibqiron”, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, Alisher Navoiy “Xamsa”.